



ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ НАЗОРATNING TASHKILIY JIHATLARI



Xolboyev Boyirbek Muhiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat sektorida ichki nazoratning tashkiliy jihatlari yoritilgan. Ichki nazorat tushunchasiga iqtisodchi olimlarning ta’rifi va yondashuvlari tadqiq qilingan. Davlat sektorida ichki nazoratning tashkiliy jihatlari yaxshilash bo’yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: davlat sektori, ichki nazorat, moliyaviy nazorat, ichki nazoratning tashkiliy jihati.

Аннотация. В данной статье описаны организационные аспекты внутреннего контроля в государственном секторе. Изучены определение и подходы экономистов к понятию внутреннего контроля. Сформированы выводы по совершенствованию организационных аспектов внутреннего контроля в государственном секторе.

Ключевые слова: государственный сектор, внутренний контроль, финансовый контроль, организационный аспект внутреннего контроля.

Abstract. This article describes the organizational aspects of internal control in the public sector. The definition and approaches of economists to the concept of internal control have been studied. Conclusions have been drawn on improving the organizational aspects of internal control in the public sector.

Key words: public sector, internal control, financial control, organizational aspect of internal control.

1. Kirish

Bugungi kunda davlat sektori faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash masalasi ichki nazoratga bo’lgan ehtiyojni oshirmoqda. Umuman olganda, budjetdan ajratilayotgan mablag’larning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish muhimdir. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda keyingi yillarda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, budjetdan ajratilayotgan mablag’larning talon-taroj qilinishi, maqsadsiz ishlatilishi kabi holatlar hozirda ham tez-tez uchrayib turibdi. Mazkur holatlarning oldini olish borasida davlat moliyaviy nazorati faoliyatini takomillashtirish, bu borada xorijiy davlatlar tajribalaridan keng foydalanish, sohada raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb bo’lib qolmoqda.

Davlat sektorida ichki nazoratni tashkil etishning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy qilish, moliya-bank axboroti saviyasi hamda sifatini oshirish, xalqaro standartlarga, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga moslashtirish, undan keng ko’lamda foydalanishni ta’minlash

dolzarb masalalardan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda, bu borada bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni [1], 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son [2], 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3946-son [3] qarorlari shular jumlasidandir.

2. Adabiyotlar sharhi

Amerikaning aksionerlik va davlat korxonalarini uchun buxgalteriya hisobi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlovchi Institut olimlari ichki nazoratni quyidagicha talqin etadi: “Ichki nazorat tashkilot rejasi va shu tashkilot (ma‘lum biznes sohasi) tomonidan quyidagilarni ta‘minlash maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi: (1) o‘z aktivlarini saqlash; (2) hisobotlardagi ma‘lumotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshirish; (3) operatsiyalar samaradorligini oshirishga ko‘maklashish; (4) tasdiqlangan boshqaruv siyosatiga rioya qilinishini rag‘batlantirish” [4].

«Internal Control-Integrated Framework» ma‘lumotlariga ko‘ra: “Ichki nazorat keng ma‘noda tashkilotning boshqaruv organi yoki boshqa xodimlari tomonidan quyidagi vazifalarni bajarish bo‘yicha ma‘lumot olish uchun amalga oshiriladigan jarayon sifatida ta‘riflanadi: -faoliyatning samaradorligi va oqilonaligi; -moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi; -qonunlar va qoidalarga rioya qilish” [5].

Xorijlik iqtisodchi olim O.E. Orlova fikricha, “Ichki nazoratni korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligi va natijaviyligiga, aktivlar va passivlarni boshqarish samaradorligiga, risklarni boshqarishga qaratilgan faoliyati sifatida belgilaydi” [6].

Xorijlik soha mutaxassislari S.R.Kontsevaya, V.A.Karasev va N.K.Kostenkovalar ichki nazoratga quyidagicha ta‘rif berishgan: “ichki nazorat - bu moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy nazorat qilish turlaridan biri sifatida aks ettirilgan yoki yaqinlashib kelayotgan iqtisodiy faktlar va ularni tartibga solish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va xo‘jalik operatsiyalarini kuzatish, tekshirish, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va talqin qilishning ishonchliligi, xolisligi, iqtisodiy va huquqiy maqsadga muvofiqligi, realligini aniqlashning tartibli tizimi” [7].

Xorijlik iqtisodchi olimlar M.A.Gurbanseidov va K.A.Frolovalar ichki nazorat atamasiga quyidagicha fikr-mulohaza bildirishgan: “ichki nazorat biznesni yuritish uchun nazorat qilinadigan xavfning maqbul darajasini ta‘minlaydigan tijorat tashkilotining ichki nazoratining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak” [8].

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Davlat sektorida ichki nazoratning tashkiliy jihatlarini tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar.

Ichki audit ichki nazorat jarayonlarini baholash va takomillashtirishda, yuqori rahbariyatga mustaqil baho berishda hamda davlat operatsiyalarida mas‘uliyat va pul qiymatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ichki auditning asosiy maqsadi ichki

nazorat, risklarni boshqarish va boshqaruv jarayonlarining natijadorligi va samaradorligini baholashdir. Zaif tomonlarni aniqlash, ularni bartaraf etish usullarini taklif qilish orqali ichki auditorlar umumiy nazorat muhitini mustahkamlashga va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga hissa qo'shadilar.

Umuman olganda, ichki nazorat samaradorligini oshirishda uni chuqur o'rganish va audit samarasizligining sabablarini ko'rib chiqish lozim. Tadqiqodchilarning ta'kidlashiga ko'ra, bunga quyidagilar sabab bo'lar ekan: samarasiz boshqaruv nazorati; ayrim tashkilotlar tomonidan maqsadlarning aniq belgilanmaganligi; yuqori boshqaruv tomonidan etarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi.

Shu sababli, davlat sektori boshqaruvida samarasiz tashkil etilgan ichki audit quyidagi oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin: - firibgarlikning paydo bo'lishi; - ichki siyosat va tartiblarga mos kelmaslik; - muvaffaqiyatli faoliyatga to'sqinlik qiluvchi samarasiz moliyaviy qaror.

Shunday qilib, samarali ichki auditlar moliyaviy va operatsion ma'lumotlar, tizimlar va protseduralarni takomillashtirish bo'yicha yaxshi tavsiyalar berish uchun mustaqil baholashni amalga oshiradi. Shuning uchun ichki nazoratni to'g'ri tashkil etish ham ichki audit samaradorligiga erishishda muhim omil hisoblanadi. Xuddi shunday, ichki audit samaradorligini ham auditorlik ishini hujjatlashtirishda izchillikni, hisobot sifatini va ularning tavsiyalarini to'g'ri bajarish orqali oshirish mumkin.

Shuning uchun, tashkilot ichidagi bunday samarali ichki nazorat avtomatik ravishda samaradorlik va rentabellikka erishishga yordam beradi va ayniqsa, davlat sektorlarida daromadlarni yo'qotishning oldini oladi.

Ichki nazorat va ichki audit bo'yicha bir nechta iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorijlik soha mutaxassisleri N.Ahmad, R.Othman va K.Jusofflar "Malayziya davlat sektorida ichki audit samaradorligi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishda oddiy foizdan foydalangan holda tadqiqot olib borgan, auditorlarining yetishmasligi ichki auditorlar tomonidan samarali boshqaruvni amalga oshirishda duch keladigan asosiy muammo sifatida baholangan. Tadqiqot kelajakdagi izlanishlarda davlat va xususiy sektorda ichki auditorlarning guruhlarini kengroq miqyosda tahlil qilish usullarini qo'llashni taklif qilish bilan yakunlangan" [9].

Xorijlik iqtisodchi olimlar A.A.M.Al-Twajry, J.A.Brierley va D.R.Gwilliamlar "ichki auditorlar ishiga tayanish tashqi auditorlarga yordam berishini va shu orqali ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish mumkinligini aniqladi. Buning sababli, ichki nazorat tizimlari davlat sektorini boshqarish jarayonlarining ajralmas qismi bo'lib, ular operatsiyalarning samarali amalga oshirilishiga asosli ishonchni ta'minlash uchun yaratilishi kerak. Samarali ichki nazorat tizimlari mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u operatsiyalar rejaga muvofiq amalga oshirilishiga asosli ishonchni ta'minlash uchun mo'ljallangan faoliyat bilan bog'liq bo'lib, ular ichki audit samaradorligiga ham ta'sir qilishi mumkin [10].

5. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda davlat sektori tashkilotlarida quyidagi komponentlar har qanday ichki nazorat tizimining tashkiliy maqsadlarga samarali erishishi uchun ishlashi kerak:

- nazorat muhiti: davlat sektori tashkilotini boshqarishning asosiy jihati, chunki bu ichki auditning iqtisodiy bo‘linmadagi boshqaruvning ahamiyati va siyosatining aksidir;

- risklarni baholash: bu boshqaruv maqsadlariga erishish bilan bog‘liq tegishli risklarni aniqlash va tahlil qilish;

- nazorat faoliyati: bu rahbariyat ko‘rsatmalarining to‘g‘ri bajarilishini ta‘minlaydigan siyosat, tartib va mexanizmlardir;

- axborot va aloqa: moliyaviy hisobot maqsadlariga erishish uchun tegishli ma‘lumotlarni tegishli tartibda va vaqt ichida aniqlash, olish, va yetkazish jarayonini anglatadi;

- monitoring: odatda ichki nazorat tizimlari vaqt o‘tishi bilan tizimning ishlash sifati va samaradorligini baholash uchun yetarli darajada kuzatilishi kerakligini anglatadi.

Shunday qilib, davlat sektorida ichki nazoratni tashkil etish va o‘tkazishda xalqaro standartlar talablarini keng joriy etilishini ta‘minlash nazoratning samarali bo‘lishida muhim omil, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5607471>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5858712>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3946-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3914502>
4. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Ducae —Financial and Managerial Accounting 12th edition, South-Western, Cengage Learning, USA, 2016.
5. «Internal Control-Integrated Framework». Committee of Sponsoring Organizations (COSO). Дата обращения: 9 февраля 2009. Архивировано из оригинала 28 февраля 2009 года.
6. Орлова О.Е. Внутренний контроль: организационный аспект // Актуальные вопросы бухгалтерского учета и налогообложения. 2012. №21. С. 67-84.
7. Концевая С.Р., Карасев В.А., Костенкова Н.К. Развитие внутреннего контроля в системе управления сельскохозяйственным производством // Международный бухгалтерский учет. 2014. №2. С. 42–50.
8. Гурбансеидов М.А., Фролова К.А. Оценка рисков как основа формирования системы внутреннего контроля организации // Финансовый вестник. 2017. № 3 (38). С. 39-44.
9. Ahmad N., Othman R., Jusoff K. (2009). The effectiveness of internal audit in Malaysian public sector. *Journal of Modern Accounting and Auditing*, 5 (9), 784-790.
10. Al-Twajjry A.A.M., Brierley J.A., Gwilliam D.R. (2003). The development of internal audit in Saudi Arabia: An Institutional Theory perspective. *Critical Perspective on Accounting*, 14, 507-531

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

